

This is not registered version of TotalDocConverter

Quyidagi qiz Nazira, teng ko'chamning sonchasi esa o'n to'rt yoshli qiz ko'zlarida milt-milt yosh bilan yugurib kelardi, hovlisi yoniga kelganida shashqator yoshini artib, eshikni asta ochdi-da:

- Oyijon, men keldim, - deganicha uyga kirib ketdi. Nazira opa bu holga hayron. Maktabdan erta qaytgani sababini so'rash uchun deraza oldiga borganida Zarinaning nolali ovozi eshitildi.

- Otam kim, onam kim, qachongacha tashlandiq deyishadi meni? - deganicha yig'lardi. Nazira opa bu ko'zyoshlar qanchalik alam, g'am bilan tomayotganini his etib yuragi ezilib ketdi.

Zarina bu hovliga kelganida jajjigina, nozik bir niholga o'xshash qizcha edi. Uni Nazira opa avtobus bekatida onasini izlab har tomonga chopib yurganida topib olgandi. Bir oy, bir yil o'tdi, ammo hech qanday darak bo'lmagach, uni o'z qizidek boqib oldi. Farzandlaridan ham ziyoda erkalab, tarbiyalab voyaga yetkazdi. Ammo Zarinaning bugungi alamli so'zlari yuragiga juda og'ir botdi. Zarina Nazira opani juda yaxshi ko'rardi-yu, ko'cha-ko'ya birortasidan "etimcha, tashlandiq qiz" degan gapni eshitib qolsa ko'tarolmasdi.

Nazira opa bu kabi qiyin vaziyatlardan chiqib, qizga o'z mehrini berib ulg'aytirdi. Zarina asta-sekin mehr taftidan alamlarni unuta boshladi. O'sha, ko'chadan yig'lab kelgan kunlar ham o'tib ketdi.

O'n sakkiz yoshga to'lganida, go'zal, hammaning havasi keladigan farishta misol qizga aylandi. U hayotidan mamnun edi.

Shunday kunlarning birida Zarinaga bir maktub keldi. Maktubni ochganida uning ichidan surat chiqdi, suratni qo'lga olgan Zarina esankirab qoldi. O'ziga o'xshagan, ammo kattaroq yoshdagi ayol. Surat ortiga maktub yozilgandi:

"Salom, Zarinam, men seni bu yoshingda ko'rishni juda orzu qilgandim, ko'rdim ham. Bolajonim, bu mening - tuqqan onangning surati. Ammo ismimni ayta olmayman. Bilaman, sen juda baxtlisan, men badbaxt seni tashlab ketganimdan keyin shunday ayol seni topib olganiga shukr. U senga mendan yaxshi ona bo'la oldi. Agarda seni bag'rimdan yulib tashlab ketmaganimda, bu qadar baxtli bo'la olmasmiding? Chunki mening noshudligim senga pand berardi. Shuni bilishingni istardimki, men seni yaxshi ko'raman, buni unutmagin. Kechir meni, yolg'izim!"